



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIY MEROS AGENTLIGI DIREKTORINING BUYRUG‘I

2025-yil 16-oktabr

222-P-son

### **O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligini oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-oktabrdagi 649-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi to‘g‘risida”gi nizomga asosan,

#### **BUYURAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 21-apreldagi PF-71-son Farmoni va “Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari mustaqilligini ta‘minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 21-apreldagi PQ-147-son qaroriga muvofiq Madaniy meros agentligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini samarali tashkil etish maqsadida:

a) Madaniy meros agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati **1-ilovaga muvofiq;**

b) Madaniy meros agentligi va uning tizim tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyoti **2-ilovaga muvofiq;**

d) Madaniy meros agentligi tizimida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risida nizom **3-ilovaga muvofiq;**

e) Madaniy meros agentligiga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamenti **4-ilovaga muvofiq;**

f) Madaniy meros agentligi tizimi xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha yo‘riqnoma **5-ilovaga muvofiq;**

g) Madaniy meros agentligi tizimida kontragentlarni tekshirishga oid yo‘riqnoma **6-ilovaga muvofiq;**

h) Madaniy meros agentligiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnoma **7-ilovaga muvofiq;**

i) Madaniy meros agentligi tizimida korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti **8-ilovaga muvofiq**;

j) Madaniy meros agentligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha nizom **9-ilovaga muvofiq**;

k) Madaniy meros agentligi tizimida korrupsiyaviy xatti-harakatlar va odo-axloq qoidalarini buzish holatlari yuzasidan xizmat tekshiruvlarini o'tkazish bo'yicha reglament **10-ilovaga muvofiq**;

l) Madaniy meros agentligining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi faoliyati to'g'risidagi nizom **11-ilovaga muvofiq**;

m) Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizom **12-ilovaga muvofiq**;

n) Madaniy meros agentligi xodimlarining odo-axloq qoidalari **13-ilovaga muvofiq**;

o) Madaniy meros agentligining Odo-axloq komissiyasi to'g'risidagi nizom **14-ilovaga muvofiq**;

p) Madaniy meros agentligining Odo-axloq komissiyasi tarkibi **15-ilovaga muvofiq tasdiqlansin**.

**2. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar madaniy meros boshqarmalari hamda Agentlik tizimidagi barcha tashkilot va muassasalar rahbarlari** o'n kun muddatda mazkur buyruqning 1-bandida belgilangan ichki idoraviy hujjatlarga asosan o'zlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki idoraviy hujjatlarini ishlab chiqsin hamda tasdiqlasin.

### **3. Belgilansinki:**

ushbu buyruqning o'z vaqtida va aniq bajarilishi yuzasidan Agentlikning mas'ul tarkibiy bo'linmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar madaniy meros boshqarmalari hamda Agentlik tizimidagi barcha tashkilot va muassasalar rahbarlari shaxsan mas'ul va javobgar hisoblanadi;

mazkur buyruq talablariga rioya qilmagan xodimlar qonunchilikda belgilangan tartibda intizomiy javobgarlikka tortiladi.

**4. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi** (B. Ismailov) bir hafta muddatda Madaniy meros agentligi direktori nomenklaturasiga kiruvchi xodimlarni mazkur buyruq va ilovalari bilan imzo qo'ydirib tanishtirsin.

**5.** Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan Madaniy meros agentligi direktorining 2022-yil 3-noyabrdagi 146-P-son, 2023-yil 23-maydagi 83-P-son 2024-yil 5-iyuldagi 179<sup>a</sup>-P-son buyruqlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

**6. Devonxonava murojaatlar bilan ishlash bo'limi** (I. Satvaldiyev) bir kun muddatda mazkur buyruq nusxasini ijrochilarga yetkazilishini ta'minlasin.

## 7. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Asos: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son qarori va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining “Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” (Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 8-sentabrda 3319-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan) buyrug‘i.

**Direktor**



**B. Abdikarimov**